
“KIM VATANGA SODIQ BO'LSA, MENDIRMAN O'SHA”



“KIM VATANGA SODIQ BO'LSA, MENDIRMAN O'SHA”

Bugun tumanimizning 3-sektori hududida joylashgan 13, 14 va 28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Vatanparvarlik oyligi” doirasida “Kim Vatanga sodiq bo'lsa, mendirman o'sha” shiori ostida tadbir tashkil etildi. Tuman mudofaa ishlari bo'limi hamda 12494-sonli harbiy qism hamkorligida tashkil etilgan tadbirda harbiy qism askar-zobitlarining chiqishlari va qurol-aslaha ko'rgazmasi namoyish etildi. Tadbir davomida talabalarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari iqtidori haqida gapirilib, qurol-aslahalar haqida ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, yoshlarga harbiylarning chiqishlari manzur bo'ldi.

Tumanimiz bo'ylab davom etayotgan “Yoshlar festivali”, “Vatanparvarlik oyligi” doirasidagi uchrashuvlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan turli targ'ibot tadbirlari barcha tuman tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-12-23 15:55:16